**Xalqaro loyiha doirasida o'quv tandem hamkorligi ishlarini bajarish uchun vaqtinchalik jamoaning Qozog'iston Respublikasining Olma-ota shahriga xizmat safarining hisoboti**

Toshkent kimyo-texnologiya institutining Deutsche Gesellschaft für Internationale Zusammenarbeit (GIZ) GmbH «Markaziy Osiyoda iqtisodiyotning oʻsish tarmoqlari uchun professional ta'lim» (PECA 5) loyihasi doirasida «Oziq-ovqat texnologiyalari sohasida kooperativ oliy ta'limning institutsional shakllarini yaratish» mavzudagi xalqaro loyihaning ijodiy guruhi a'zolari O'zbek tili va professional ta'lim kafedrasi mudiri Aripova Gulnora Shuxratullayevna, Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi kafedrasi mudiri Ro'ziboyev Akbarali Tursunboyevich, Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi kafedrasi professori vazifasini bajaruvchi Djaxangirova Gulnoza Zinatullayevna va "Toshkentdonmahsulotlari" AJ da Kadrlar zahirasi va oʻquv yurtlari bilan ishlash boʻyicha bosh mutaxassisi Babaxanov Axadxan Asadilayevich 2023 yilning 25-28 yanvar kunlari Xalqaro loyiha doirasida kooperativ (dual) ta'lim toʻgʻrisidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, uning samaradorligini baholash mezonlari va boshqa hujjatlarni ishlab chiqish boʻyicha xorijiy tajriba tahlili oʻtkazildi va loyiha boʻyicha belgilangan vazifalarni ijrosini ta`minlash maqsadida Qozog'iston Respublikasining Olma-ota shahriga xizmat safari uyushtirildi.





Uchrashuv doirasida Toshkent kimyo-texnologiya institutining loyiha a'zolari tandem hamkor oliy ta'lim muassasi Qirgʻiziston Respublikasining Qirgʻiziston Davlat Texnika Universiteti loyiha a'zolari bilan Olmaota Texnika Universiteti va Olmaota servis xizmat koʻrsatish texnikumlarining tajribasida kooperativ (dual) ta'lim toʻgʻrisidagi nizom, uning samaradorligini baholash mezonlari va boshqa hujjatlarni ishlab chiqish boʻyicha tahlillar oʻtkazildi. Oziq-ovqat ta'lim yoʻnalishlari va professional ta'limda dual taьlim tizimi boʻyicha hamkorlik gʻoyalari hamda imkoniyatlari muhokama qilindi hamda oʻzaro tajriba almashinildi.

 

Tadbir yakunida kooperativ (dual) ta'lim to'g'risidagi nizom va tandem tashkilotlarida loyihani amalga oshirishni tartibga soluvchi boshqa hujjatlarni (o'quv rejasi, malaka talabi, o'quv kalendarini) ishlab chiqishda amaliy ko'mak va ekspertizadan o'tkazish uchun qisqa muddatli mutaxassisga qo'yilgan talablarni belgilab beruvchi loyiha ishtirokchilari tomonidan ishlab chiqilgan texnik topshiriq taqdim etildi. Kooperativ (dual) ta'lim to'g'risidagi nizom va o'quv rejasi, malaka talabi, o'quv kalendarini ishlab chiqishda amaliy ko'mak va ekspertizadan o'tkazish uchun qisqa muddatli mutaxassislar dastlabki Olmaota Texnika Universiteti va Olmaota servis xizmat ko'rsatish texnikumlari mutaxassislaridan jalb qilinishi kelishib olindi.

Loyiha rahbari — G. Aripova

Loyiha a'zosi — A. Ruziboyev

Loyiha a'zosi — G. Djaxangirova